Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 59 871,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo‘shgan hissasi 4,6 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






- YAHM o‘sish sur’ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo‘shgan hissasi

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2024- yil*** | ***2025- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **51 127,2** | **59 871,0** | **107,4** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 50 075,0 | 58 471,9 | 107,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 052,2 | 1 399,1 | 109,7 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **50 075,0** | **58 471,9** | **107,3** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **17 237,9** | **19 186,1** | **104,2** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **15 042,5** | **17 806,6** | **108,6** |
| sanoat | 10 031,8 | 12 038,8 | 107,3 |
| qurilish | 5 010,7 | 5 767,8 | 111,2 |
| **xizmatlar** | **17 794,6** | **21 479,2** | **109,2** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 6 013,8 | 7 278,8 | 110,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 2 869,5 | 3 717,6 | 117,0 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 8 911,3 | 10 482,8 | 106,0 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 28 673,2 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 5,7 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi

*(ming so‘mda)*

24 864,9 — 2024- yil

28 673,2 — 2025- yil

## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

2024- yil — 104,0 %

2025 yil — 105,7 %

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2024- yil* | *2025- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,9 | 97,7 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,1 | 2,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **34,4** | **32,8** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **30,0** | **30,5** |
| sanoat | 20,0 | 20,6 |
| qurilish | 10,0 | 9,9 |
| **xizmatlar** | **35,6** | **36,7** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 12,0 | 12,4 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,7 | 6,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 17,9 | 17,9 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,8 % ni, sanoat tarmog‘i 20,6 % ni, qurilish 9,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2024- yil**




**2025- yil**




Yalpi qo‘shilgan qiymat    Mahsulotlarga sof soliqlar

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



YAHM oʻsishiga qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻi 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,6 f.p.), sanoat tarmogʻi – 1,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,0 f.p.), qurilish tarmogʻi – 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,0 f.p.) va xizmat koʻrsatish sohasi – 3,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qoʻshdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning oʻsishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.)ga koʻpaydi.

## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM oʻsishida tarmoqlarning hissasi

*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning oʻsishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy oʻsish sur’atlari bilan bogʻliqdir. Oʻsish sur’atlari qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 104,2 % (YAHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi – 32,8 %), sanoatda – 107,3 % (20,6 %), qurilishda – 111,2 % (9,9 %), xizmatlar sohasida – 109,2 % ni (36,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida oʻsish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda 110,4 % (12,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,0 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,0 % dan (17,9 %) iborat boʻldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mutlaq oʻsish sur’atlari

*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2024- y. | | 2025- y. |
|---|---|---|
| 5,8 % | YAHM | 7,4 % |
| 1,7 % | Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi | 4,2 % |
| 6,1 % | Sanoat | 7,3 % |
| 9,3 % | Qurilish | 11,2 % |
| 9,2 % | Xizmatlar | 9,2 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari sanoatda – 111,8 % va xizmatlarda – 110,5 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2024- y. | 2025- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,0% | 109,0% |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 107,7% | 106,8 % |
| Sanoat | 114,7 % | 111,8 % |
| Qurilish | 106,8 % | 103,5 % |
| Xizmatlar | 113,0 % | 110,5 % |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 42 195,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 36 551,1 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 72,2 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 73,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2024- yil | 36 551,1 | 73,0 % |
| 2025- yil | 42 195,7 | 72,2 % |

